

## **Moliyaviy savodxonlikka oid loyihalarni mustaqil amalga oshirishdan manfaatdor bo'lgan tashkilotlar uchun tavsiyaviy-uslubiy QO'LLANMA**

Mazkur tavsiyaviy-uslubiy qo'llanma (bundan buyon matnda qo'llanma deb yuritiladi) banklar, nobank kredit tashkilotlari, to'lov tizimi operatorlari, to'lov tashkilotlari, valyuta birjasi va kredit byurolarining (bundan buyon matnda manfaatdor tashkilotlar deb yuritiladi) moliyaviy savodxonlik bo'yicha mustaqil loyihalarini amalga oshirish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tavsiyalari va minimal talablarini belgilaydi.

### **1- bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur qo'llanmada quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

**moliyaviy savodxonlik** – oqilona moliyaviy qarorlar qabul qilish va pirovardida shaxsiy moliyaviy farovonlikka erishish uchun zarur bo'lgan moliyaviy xabardorlik, bilim, ko'nikmalar, munosabat va xulq-atvor majmuasi;

**raqamli moliyaviy savodxonlik** – raqamli moliyaviy xizmatlar va raqamli texnologiyalardan xabardor bo'lish va xavfsiz foydalanish orqali shaxsiy moliyaviy farovonlikni ta'minlash uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, munosabat va xulq-atvor majmuasi;

**moliyaviy farovonlik** – fuqarolarning o'z moliyaviy ehtiyoj va majburiyatlarini muammolarsiz boshqara olishi, moliyaviy qiyinchiliklarga tayyor ekanliklari, barcha imkoniyatlardan foydalangan holda o'z maqsadlariga erishishi, shuningdek, moliyaviy ahvolidan mamnuniyat va ishonch his qilishi holati;

**o'qitishning yangi texnologiyalari** – ta'lim va axborot ma'lumotlarni hamda sohaga oid tushunchalarni ko'ngilochar tarzda yoki o'yinlar orqali oson va qiziqarli usulda yetkazishni nazarda tutadigan o'quv jarayoni shakli.

2. Moliyaviy savodxonlik loyihalariga quyidagilar kiradi:

moliyaviy ommaboplikni oshirish milliy strategiyasi doirasidagi moliyaviy savodxonlik bo'yicha tadbirlar, mustaqil yoki boshqa manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan boshqa tadbirlar;

moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan o'quv materiallari va axborot resurslarini tayyorlash va targ'ib qilish;

aholi uchun ta'lim dasturlarini (bevosita maslahatlar, davra suhbatlari, joylardagi treninglar va boshqalar) amalga oshirish;

o'qitishning yangi texnologiyalardan foydalangan holda, shu jumladan media kanallar (ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar, televideniye, radio, veb-saytlar va boshqalar) orqali amalga oshiriladigan ta'lim loyihalari;

yillik ta'lim kampaniyalari doirasida tashkil etiladigan tadbirlar, konferensiyalar va forumlar;

moliyaviy savodxonlik loyihalarini amalga oshiruvchi xodimlar, trenerlar va mutaxassislarning malakasini oshirish.

3. Moliyaviy savodxonlik loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda 1-ilovaga muvofiq<sup>1</sup> moliyaviy savodxonlik bo'yicha bazaviy kompetensiyalar (bundan buyon matnda bazaviy kompetensiyalar deb yuritiladi) andozasi va Moliyaviy ommaboplik alyansining bolalar va yoshlar uchun moliyaviy kompetensiyalar andozalarini inobatga olish tavsiya etiladi.

4. Bazaviy kompetensiyalar orasidan moliya bozori va infratuzilmasida islohot va taraqqiyotni hisobga olib, quyidagilarni ustuvor kompetensiyalar sifatida alohida ta'kidlash mumkin:

bozorda mavjud, shu jumladan raqamli vositalar orqali taqdim etilayotgan moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarning har xil turlarini bilish, ularning afzalliklari va xatarlarini tushunish;

moliyaviy xizmatlar iste'molchilarining huquq va majburiyatlarini bilish;

mas'uliyat bilan qarz olish, moliyaviy xavfsizlik va shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashning asosiy qoidalariga rioya qilish.

## **2-bob. Moliyaviy savodxonlik bo'yicha loyihalarni amalga oshirishning asosiy mezonlari**

5. Moliyaviy savodxonlik bo'yicha loyihalarni amalga oshirishda manfaatdor tashkilotlar quyidagi asosiy mezonlarni inobatga olishlari tavsiya etiladi:

a) tijorat va ta'lim faoliyatini bir-biridan ajratish, loyihalarni rejalashtirish va amalga oshirishda marketing yondashuvga yo'l qo'maslik, shu jumladan:

reklama qilmaslik, mahsulot va xizmatlarni sotmaslik;

raqobatchilarning xizmatlari va mahsulotlarini tanqid qilmaslik;

tashkilot nomi, logotiplarini stendlar va o'quv materiallariga joylashtirishni minimallashtirish;

b) moliyaviy savodxonlik bo'yicha mustaqil loyihalarni O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan rejalashtirish, muvofiqlashtirish hamda amalga oshirish to'g'risida ma'lumot berish;

c) moliyaviy savodxonlik bo'yicha bolalar va yoshlar uchun ta'lim tadbirlari o'tkazilishida o'quv materiallari va resurslarining sifati hamda uzviy bog'liqligi tegishli vazirliklar tomonidan ishlab chiqilgan milliy o'quv dasturlari hamda standartlariga muvofiq bo'lishi;

---

<sup>1</sup> So'rov bo'yicha mazkur hujjat taqdim etilishi mumkin

d) O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining moliyaviy savodxonlik bo'yicha ta'lim resursida, shuningdek boshqa manbalarda joylashtirilgan tayyor materiallardan foydalanganda tegishli havolalarni taqdim etilishini ta'minlash;

e) moliyaviy savodxonlik bo'yicha ta'lim tadbirlarini o'tkazishdan yoki tayyor mutaxassislarni jalb qilishdan oldin xodimlarni o'qitish, bunda moliyaviy ta'lim bilan shug'ullanadigan xodimlar ta'lim loyihalari davomida o'z tashkilotlari nomidan marketing faoliyatini amalga oshirmaslik;

f) moliyaviy savodxonlik bo'yicha loyihalarning samaradorligini monitoring qilish va baholash.

### **3-bob. Moliyaviy savodxonlik bo'yicha loyihalarni amalga oshirish**

6. Moliyaviy savodxonlik bo'yicha loyihalarni rejalashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha quyidagilarga amal qilish tavsiya etiladi:

maqsadli guruhni aniqlash va ularning dolzarb ehtiyojlarini hisobga olish, shu jumladan ijtimoiy so'rovnomalar natijalari, iste'molchilarning shikoyat va murojaatlari kabi miqdor va sifat ko'rsatkichlardan foydalanish;

loyihaning maqsad hamda vazifalarini ishlab chiqish;

ta'lim materiallarini ishlab chiqish;

mas'ul xodim va mutaxassislarni loyiha o'tkazishga tayyorlash;

loyiha uchun maxsus axborot materiallarini ishlab chiqish (tarqatma materiallar, bannerlar va boshqalar);

loyihani o'tkazish joyi, amalga oshirish mexanizmini aniqlash;

ishtirokchilar hisobini yuritish (soni, jinsi, yoshi va boshqalar);

belgilangan maqsad va vazifalar asosida samaradorlikni baholash;

natijalarni aloqa kanallari (veb-sayt, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari va boshqalar) orqali e'lon qilish va yoritish;

moliyaviy savodxonlik bo'yicha loyihalar to'g'risidagi hisobotni 2-ilovada keltirilgan shakl bo'yicha tegishli foto, video materiallari bilan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga taqdim etish.

7. Moliyaviy savodxonlik bo'yicha o'quv tarqatma materiallari va axborot resurslarini tayyorlashda quyidagilarga amal qilish tavsiya etiladi:

xulq-atvor iqtisodiyoti fanlari, psixologik tadqiqotlar va ijtimoiy marketingning tegishli xulosalari asosida yosh, jins, ijtimoiy kelib chiqishi, madaniyat, hudud tili, bilim, ko'nikma, ta'lim va savodxonlik darajasi, shuningdek maqsadli guruhning joriy ehtiyojlarini inobatga olish;

muayyan hayot bosqichlari va vaziyatlariga qarab moliyaviy xizmatlar iste'molchilarining huquq va majburiyatlarini yoritish;

ma'lum bir moliyaviy xizmatlar yetkazib beruvchi tashkilotni ko'rsatmagan holda milliy bozorda mavjud zamonaviy moliyaviy xizmatlar va mahsulotlar bo'yicha imkoniyatlar hamda tavakkalchiliklarni yoritishning muvozanatini saqlash;

ma'lumotni sodda va ravon tilda taqdim etish, shu jumladan zaruratga ko'ra murakkab va texnik atamalarga tushuntirishlar berish;

maqsadli guruhning jismoniy imkoniyatlarini hisobga olgan holda ma'lumotni qabul qilish va o'zlashtirish uchun qulay shaklda yetkazish;

imkoniyati cheklangan shaxslar uchun o'quv materiallari va axborot resurslarini ishlab chiqish;

axborotni bir tomonlama taqdim etishga yo'l qo'ymaslik, bunda aholi to'liq tushunishi uchun har qanday masalaning ijobiy va salbiy tomonlarini ochib berish;

moliyaviy savodxonlik bo'yicha qo'shimcha ta'lim resurslari, shu jumladan iste'molchilar huquqlarini himoya qilish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining moliyaviy savodxonlik bo'yicha ta'lim resurslarini taqdim etish va ko'rsatish.

8. Moliyaviy savodxonlik bo'yicha ta'lim loyihalarini o'tkazishga mas'ul shaxslar quyidagilarga amal qilishi maqsadga muvofiq:

ta'lim loyahasining maqsadlari, mazmuni hamda vazifalarini tushunishi;

moliya bozorida joriy holat va so'nggi yangiliklardan xabardor bo'lishi;

maqsadli guruhlar bilan, ayniqsa bolalar va yoshlar bilan ishlash uchun o'qitish hamda notiqlik mahoratining mavjud bo'lishi;

mavzu bo'yicha yetarli bilimga ega bo'lishi, loyihalarni o'tkazishdan oldin o'quv materiallaridan xabardor bo'lishi;

umumta'lim muassasalarida o'quvchi/talabalar uchun o'tkaziladigan o'quv loyihalarda muassasaning tegishli o'qituvchi/pedagoglari ishtirokini ta'minlashi.

9. Ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda targ'ibot-tashviqot loyihalarini amalga oshirish bo'yicha quyidagilarga amal qilish tavsiya etiladi:

yashirin targ'ibotsiz yoki ma'lum moliyaviy mahsulotlar va xizmatlardan foydalanishga undamasdan, moliyaviy savodxonlik loyahasining ta'lim maqsadi hamda tavsiyaviy xarakterga egaligini ta'kidlash;

loyihaning mazmunini milliy va oilaviy an'analarga, shuningdek, umume'tirof etilgan axloq hamda etika normalariga rioya qilgan holda ibora va tasvirlardan foydalanib, ijtimoiy axborot shaklida ishlab chiqish;

moliyaviy savodxonlik loyihalarini o'tkazadigan va yoritadigan shaxslarni (ta'sir doirasi keng shaxslar, ommaviy axborot vositalari vakillari, shou-biznes vakillari) jalb qilishda moliyaviy savodli shaxsning mezonlariga rioya etilishi, shaxsning to'g'ridan-to'g'ri faoliyati va belgilangan maqsad shuningdek reputatsion xavf-xatarlar hamda boshqa omillarni hisobga olish;

moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni reklamasidan moliyaviy savodxonlik va moliyaviy ta'lim bo'yicha havolalarni chiqarib tashlash.

#### **4-bob. Moliyaviy savodxonlik bo'yicha loyihalarning maqsadli guruhlarini aniqlash**

10. Har yil boshida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha maqsadli guruhlar aniqlanadi.

11. Maqsadli guruhlar bilan o'zaro munosabatlar shakli hududning moddiy va texnik imkoniyatlaridan, shuningdek tinglovchilar tomonidan afzal ko'rilgan ta'lim formatidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

12. Muhim moliyaviy qarorlarni qabul qilish bilan bog'liq asosiy vaziyatlarga asoslanib, maxsus treninglar va maslahatlarga ham alohida e'tibor qaratish lozim.

#### **5-bob. Moliyaviy savodxonlik bo'yicha loyihalarni amalga oshirish yuzasidan chora-tadbirlarni muvofiqlashtirish**

13. Moliyaviy savodxonlik loyihalari quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining mustaqil loyihalari, shu jumladan manfaatdor tashkilotlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda;

manfaatdor tashkilotlarning mustaqil loyihalari, shu jumladan xalqaro tashkilotlar yoki boshqa manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikdagi loyihalari.

14. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

aholining joriy ehtiyojlaridan kelib chiqib, monitoring qilish uchun ma'lumotlar va tadqiqotlar, jumladan xalqaro va ilg'or xorijiy tajribaga asosan har yil boshida moliyaviy savodxonlik bo'yicha tematik yo'nalishlar, maqsadli guruhlar, geografik qamrov, loyihalar shaklini tavsiya etish;

maqsadli guruhlar va moliyaviy ta'lim dasturlari bo'yicha kelgusida amalga oshirish va qamrovini kengaytirish uchun asosiy kompetensiyalar andozasini ishlab chiqish;

ta'lim loyihalarini tashkil etish va aholining xabardorligini oshirish bo'yicha xalqaro ta'lim kampaniyalarini O'zbekistonda o'tkazishga tashabbuskorlik qilish va ushbu tadbirlarga manfaatdor tashkilotlarni jalb qilish;

milliy muvofiqlashtiruvchi vazifasini bajargan holda amalga oshirilgan ishlar, shu jumladan xalqaro ta'lim kampaniyalari bo'yicha monitoring olib borish va yuqori turuvchi davlat organlari hamda xalqaro tashkilotlarga taqdim etish uchun hisobotlarni tayyorlash;

zarur hollarda manfaatdor ishtirokchilarning moliyaviy savodxonlik bo'yicha mustaqil loyihalarini rejalashtirish, ishlab chiqish va amalga oshirishini qo'llab-quvvatlash, shuningdek vazirlik va idoralarhamda boshqa davlat tashkilotlari bilan hamkorlik olib borishiga ko'maklashish.

15. Manfaatdor tashkilotlarning moliyaviy savodxonlik bo'yicha vazifalari quyidagilardan iborat:

an'anaviy va innovatsion moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarning xususiyatlari, shuningdek ular bilan bog'liq moliyaviy xavf-xatarlar to'g'risida iste'molchilarning xabardorligini va tushunchasini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining axborotni oshkor qilish to'g'risidagi talablariga rioya qilish, shuningdek, moliyaviy xizmatlar iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq iste'molchilarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiyati, moliyaviy holatidan qat'i nazar barcha iste'molchilarga hurmat bilan munosabatda bo'lish;

mazkur qo'llanmaning 5-bandida ko'rsatilgan asosiy mezonlarga muvofiq moliyaviy savodxonlik bo'yicha ta'lim loyihalarini amalga oshirish;

moliyaviy savodxonlik loyihalari samaradorligini monitoring qilish va baholash uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan yuborilgan hisobot shakliga muvofiq ma'lumotlarni to'g'ri shakllantirilishini qat'iy ta'minlash;

ta'lim loyihalarini o'tkazishda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan hamkorlik qilish;

iste'molchilarga kredit ajratishdan oldin shartlarni xolisona baholash va asosli qaror qabul qilish imkonini berib, kelajakda kredit to'lovlarni amalga oshirishda qiyinchiliklarni kamaytirish maqsadida moliyaviy savodxonlik bo'yicha loyihalarni ishlab chiqishda aniq, tushunarli va sodda tilda zarur ma'lumotlarni to'liq taqdim etishni hisobga olish;

iste'molchilarga xizmat ko'rsatish davomida o'z majburiyatlarini bajarishda sustkashlikka yo'l qo'yish, to'lov qobiliyatini yo'qotish va to'lovlarni kechiktirishning oqibatlari hamda xavf-xatari, shuningdek muddati o'tgan to'lovlarning kredit tarixiga salbiy ta'siri hamda kelajakda boshqa kreditlarni olish imkoniyatini cheklashi bo'yicha maslahatlar berish.

## **6-bob. Moliyaviy savodxonlik bo'yicha loyihalar samaradorligini monitoring qilish va baholash**

16. Moliyaviy savodxonlik loyihalarini monitoring qilish va baholash chora-tadbirlarning samaradorligi hamda resurslardan to'g'ri foydalanilganiga amin bo'lish, shuningdek kelgusida takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlash uchun zarur.

17. Moliyaviy savodxonlik bo'yicha loyihalarni rejalashtirish jarayonida monitoring va baholash tizimlarini ishlab chiqish tavsiya etiladi.

18. Baholash mexanizmini ishlab chiqishda loyihaning maqsadlari, uning davomiyligi, maqsadli guruh va amalga oshirish usuli hisobga olinishi maqsadga muvofiq.

19. Moliyaviy savodxonlik loyihalarini baholash tizimi quyidagi maqsadlar asosida ishlab chiqiladi:

agar loyiha maqsadi axborot yetkazish bo'lsa, u holda baholash ko'rsatkichi sifatida aholi qamrovi hisobga olinib miqdoriy ko'rsatkichlarda ifoda etiladi;

agar loyiha maqsadi bilim yoki ko'nikma darajasini oshirishdan iborat bo'lsa, bilimlarni o'zlashtirish va o'sish darajasini tadbirdan oldin va keyin o'tkazilgan baholash natijalari orqali ifodalanadi;

agar loyiha maqsadi joriy va yangi moliyaviy xatti-harakatlar namunalarini o'zgartirish yoki shakllantirishdan iborat bo'lsa, loyihaning boshida tadbirda qatnashgan aniq maqsadli guruhning xatti-harakatlaridagi o'zgarish darajasini aniqlash uchun uzoq muddatli (3-6 oy yoki undan ko'proq) monitoring va baholash jarayonlaridan foydalaniladi.

## **7-bob. Yakunlovchi qoidalar**

20. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki moliyaviy ta'limni rivojlantirish va savodxonlikni oshirishga doir xalqaro standartlar va innovatsiyalarni markazlashtirilgan holda amaliyotga tatbiq etadi hamda manfaatdor tashkilotlarga ishda foydalanish uchun yetkazib beradi.

21. Mazkur qo'llanma tavsiyalaridan nodavlat notijorat tashkilotlarining moliyaviy savodxonlik bo'yicha loyiha va tadbirlarini rejalashtirish hamda amalga oshirishga nisbatan tatbiq etilishlari mumkin.

*\* So'rov bo'yicha mazkur hujjat rus tilida taqdim etilishi mumkin.*